

Ilmiy risolaga ilk qadam

2 mart 2019 yil soat 14⁰⁰ da V - korpus 613 - xonada “Elektrotexnologiyalar va elektr jihozlaridan foydalanish” kafedra assistenti **N.Eshpulatovning 05.05.07 - Qishloq xo'jaligida elektr texnologiyalar va elektr uskunalar ixtisosligi bo'yicha “Meva va uzum sharbati ishlab chiqarishning energiya samaradorligini oshirish elektrotexnologiyasi”** mavzusida texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiya ishining kafedra muhokamasi bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda kafedra a'zolari va taklif etilgan professor-o'qituvchilar qatnashishdi. Talabgor N.Eshpulatov dissertatsiya ishining maqsadi, vazifalari va olingan ilmiy natijalar bo'yicha ma'lumot berdi. Yig'ilish qatnashchilari o'zlarini qiziqtirgan savollar bo'yicha kerakli javoblarni olishdi. Dissertatsiya ishini keyingi bosqichda himoya qilish uchun tavsiya etish bo'yicha kafedra qarori qabul qilindi.



Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov